O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2026, [14]
ISSN 2181-7324(Print)

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz
ISSN 3093-8996(Onlayn)

UDK: 4.45.48.74

Shuhrat G. JAPPAROV,
Mustaqil tadqiqotchi, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Toshkent, O‘zbekiston
E-mail: alfargoniy.uz@gmail.com, Orcid: 0009-0001-5446-9328

Dotsent B.Mirzaraximov taqrizi asosida

O‘ZBEKISTONNING MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI BILAN KO‘P TOMONLAMA HAMKORLIGI: IKKI PLATFORMALI FUNKSIONAL MINTAQAVIYLASHUV

Annotatsiya

Ushbu maqola O‘zbekistonning Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmaniston va Tojikiston bilan ko‘p tomonlama hamkorligini 1991–2026-yillardagi institutsional evolyutsiya, ayniqsa 2017-yildan keyingi siyosiy faollashuv doirasida tahlil qiladi. Tadqiqotning maqsadi Maslahat uchrashuvi va Turkiy davlatlar tashkiloti mexanizmlarining o‘zaro to‘ldiruvchanligini, amaliy natijalarini hamda ijro cheklovlarini aniqlashdir. Sifatli keys-stadi, jarayonni kuzatish va yo‘naltirilgan kontent-tahlil usullari qo‘llanib, rasmiy deklaratsiyalar, davlat rahbarlari nutqlari, xalqaro tashkilotlar hujjatlari hamda ilmiy adabiyotlar foydalanildi. Maslahatlashuv uchrashuvlari siyosiy ishonch va mintaqaviy kun tartibini shakllantirsa, TDT savdo, transport, investitsiya va gumanitar sohalarda loyiha vositalarini taklif etadi. Maqola ushbu ikki yo‘nalishning uyg‘unlashuvini “ikki platformali funksional mintaqaviylashuv” modeli sifatida konseptuallashtiradi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, Markaziy Osiyo, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmaniston, maslahat kengashi, Turkiy davlatlar tashkiloti.

МНОГОСТОРОННЕЕ СОТРУДНИЧЕСТВО УЗБЕКИСТАНА С ГОСУДАРСТВАМИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ: ФУНКЦИОНАЛЬНАЯ РЕГИОНАЛИЗАЦИЯ НА ДВУХ ПЛАТФОРМАХ

Аннотация

В статье анализируется многостороннее сотрудничество Узбекистана с Казахстаном, Кыргызстаном, Туркменистаном и Таджикистаном в контексте институциональной эволюции в 1991–2026 годах, с особым акцентом на активизацию политического взаимодействия после 2017 года. Цель исследования – выявить взаимодополняемость механизмов Консультативных встреч и Организации тюркских государств, их практические результаты, а также ограничения в реализации принятых решений. В исследовании применены методы качественного кейс-стади, прослеживания процессов и направленного контент-анализа; источниковую базу составили официальные декларации, выступления глав государств, документы международных организаций и научная литература. Консультативные встречи способствуют укреплению политического доверия и формированию региональной повестки, тогда как Организация тюркских государств предлагает инструменты реализации проектов в торговой, транспортной, инвестиционной и гуманитарной сферах. В статье сопряжение этих двух направлений концептуализируется как модель «двухплатформенной функциональной регионализации».

Ключевые слова: Узбекистан, Центральная Азия, Казахстан, Кыргызстан, Туркменистан, консультативный совет, Организация тюркских государств.

MULTILATERAL COOPERATION OF UZBEKISTAN WITH THE CENTRAL ASIAN STATES: FUNCTIONAL REGIONALIZATION ON TWO PLATFORMS

Annotation

This article examines Uzbekistan’s multilateral cooperation with Kazakhstan, Kyrgyzstan, Turkmenistan, and Tajikistan within the context of institutional evolution between 1991 and 2026, with particular emphasis on the intensification of political engagement since 2017. The study aims to identify the complementarity between the mechanisms of the Consultative Meetings and the Organization of Turkic States, their practical outcomes, and the constraints on implementation. Employing qualitative case study methods, process tracing, and directed content analysis, the research draws on official declarations, speeches by heads of state, documents issued by international organizations, and scholarly literature. While the Consultative Meetings foster political trust and shape the regional agenda, the Organization of Turkic States provides instruments for project implementation in trade, transport, investment, and humanitarian cooperation. The article conceptualizes the convergence of these two tracks as a model of “dual-platform functional regionalization.”

Keywords: Uzbekistan, Central Asia, Kazakhstan, Kyrgyzstan, Turkmenistan, consultative council, Organization of Turkic States.

Kirish. Bugungi xalqaro munosabatlar tizimida ko‘p qutblilik qabul qilinish va yakka yetakchilik da’vosi yoki ikki qutblilikdan uzoqlashish jaroyini yuz beryotgan bir vaqtda, ma’lum hudud va mintaqada joylashgan davlatlar bilan mintaqaviylashuv tendensiyasi yuz bermoqda. Shu jihatdan, Markaziy Osiyo davlatlari ham hozirgi davrda mintaqaviylashuvning o‘ziga xos modellini ishlab chiqishga urinmoqdalar. Qayd etish joizki, shu vaqtga qadar MO mintaqaviyligi uzoq yillar davomida ikki qarama-qarshi tasvir orqali talqin qilinib, bir tomonda geografik yaqinlik, umumiy infratuzilma va o‘zaro bog‘liq energetika tizimlari, ikkinchi tomonda esa suverenitetni saqlash, tashqi siyosiy yo‘nalishlardagi tafovvutlar va qabul qilingan bitimlar ijrosining oxiriga yetmasligi sabab mintaqada hamkorlikka obyektiv ehtiyoj mavjud bo‘lsa-da, u Yevropa Ittifoqiga o‘xshash millatlararo integratsiyaga olib chiqmayabdi.

Dastlabki tadqiqotlar bu holatni geosiyosiy raqobat, tizim xavfsizligi va “virtual mintaqaviylik” bilan izohlashi ham inkor etilmaydi[1].

2016-yildagi hokimiyat almashuvidan so‘ng O‘zbekiston tashqi siyosatida qo‘shnichilik va mintaqaviy murosa ustuvor yo‘nalishga aylandi. Prezident Sh.Mirziyoyev 2017-yilgi Samarqand nutqida chegaralar, suv, transport va savdo bo‘yicha oqilona murosa zarurligi ilgari surildi va bu keyinchalik haqiqiy siyosiy burilish, Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining muntazam Maslahatlashuv uchrashuvlari bilan institutsionallashdigani muhim jihati bo‘ldi[2]. Eng avvalo bu uchrashuvlarni o‘tkazish tajlifi BMT minbaridan turib aytilgan edi[3]. 2018–2025-yillardagi uchrashuvlar norasmiy muloqotdan milliy koordinatorlar, sohaviy kengashlar, yo‘l xaritalari va xavfsizlik hujjatlariga tomon rivojlandi[4].

Biroq “integratsiya” atamasini qo‘llashda biroz ehtiyotkorlik zarur. Albatta, mintaqaviy hamkorlik davlatlararo muvofiqlashtirishni anglatadi, biroq, integratsiya esa vakolatlarning umumiy institutlarga barqaror ravishda topshirilishi, huquqiy majburiyatlar va bajarilishni nazorat qilish mexanizmlarini ham talab qiladi. Hozirgi Maslahatlashuv formati tenglik, konsensus, ixtiyoriylik va suverenitetni saqlashga tayangani bois, uni qat’iy integratsiyadan ko‘ra “maslahatlashuv uchrashuvlari” sifatida ta’riflash aniqroqdir. TDT esa bu siyosiy muhitni savdo, bojxona, transport, investitsiya va gumanitar loyihalar bilan to‘ldiradi. O‘zbekiston 2019-yilda TDTning to‘liq a’zosiga aylangani ushbu ikki yo‘nalishni bir tashqi siyosiy strategiyada birlashtirish imkonini berdi[5].

Ma’lumki, O‘zbekistonning yangi mintaqaviy siyosatini yoki Maslahatlashuv uchrashuvlarini o‘tkazish tashabbuslarini mintaviylikka harakatni boshlab berdi, biroq Markaziy Osiyo turkiy davlatlari bilan hamkorlikda Maslahatlashuv formati va TDT o‘rtasidagi funksional mehnat taqsimoti yetarlicha konseptuallashtirilmagan.

Materiallar va metodlar. Tadqiqot sifatli yagona keys-stadi uslubiga ega. Empirik davr 1991–2026-yillarni qamrab oladi, biroq sababiy tahlilning asosiy qamrovi 2017–2026-yillardir. Hududiy yadro sifatida O‘zbekistonning Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Turkmaniston bilan ko‘p tomonlama aloqalari tanlandi. Tojikiston turkiy tilli davlat bo‘lmasa-da, butun mintaqani qamrab oluvchi Maslahatlashuv uchrashuvlari, suv havzalari va xavfsizlik rejimlarining ajralmas ishtirokchisi sifatida zarur joylarda tahlilga kiritildi. 2025-yildan formatda to‘liq ishtirok etayotgan Ozarbayjon esa mintaqaviy formatning transmintaqaviy kengayishi sifatida ko‘rib chiqildi.

Manbalar tahlilida uch asosiy O‘zbekiston Prezidenti rasmiy saytidagi nutqlar va yakuniy hujjatlar, ikkinchi, TDT, Jahon banki va boshqa xalqaro institutlarning strategik hamda loyiha hujjatlari, uchinchi, ilmiy tadqiqot ishlari va ilmiy jurnallarda chop etilgan mintaqaviylik, O‘zbekiston tashqi siyosati va transchegaraviy suv bo‘yicha tadqiqotlar qamrab olinadi.

Natijalar. Ma’lumki, 1990-yillarning o‘rtalarida O‘zbekiston, Qozog‘iston va Qirg‘iziston erkin savdo, yagona iqtisodiy makon va umumiy bank kabi yuqori darajada rasmiylashtirilgan mexanizmlarni sinab ko‘rdi. Keyinchalik Markaziy Osiyo iqtisodiy hamjamiyati va Markaziy Osiyo hamkorligi tashkiloti doirasida kengaytirildi. Ushbu davr ma’lum bir institut yaratish bo‘yicha faol bo‘lsa-da, bojxona siyosati, suv–energetika manfaatlari, milliy iqtisodiy modellarning farqi va ijro intizomining sustligi natijadorlikni chekladi[6]. 2005-yildan keyin mintaqaga xos tuzilma kengroq Yevroosiyo platformalari ichida yo‘qoldi va Markaziy Osiyoning o‘z kun tartibini mustaqil ishlab chiqish salohiyatini zaiflashtirdi.

2017-yildan keyingi bosqich avvalgi tajribani takrorlamay, xatolardan xulosa chiqarilgan xolda natijadorlikka erisha boshladi. Yangi model darhol yagona bozor yoki millatlararo organ tuzishni emas, ishonchni qayta tiklash, o‘tkir masalalarni siyosiy darajada muhokama qilish va natijani sektoral bitimlar orqali bosqichma-bosqich mustahkamlashni tanladi. Maslahatlashuv uchrashuvlarining samaradorligini “sammitlar soni” bilan emas, ularning atrofida paydo bo‘lgan ikkilamchi institutlar bilan tushuntirish masalaga aniqlik kiritadi. 2018-yildagi Astana uchrashuvi siyosiy formatni qayta tikladi, 2019-yilda tashqi ishlar vazirlari va ekspertlar darajasidagi tayyorgarlik mustahkamlandi, 2023-yilda Milliy koordinatorlar kengashi, xavfsizlik kengashlari, transport vazirlari va universitet rektorlari kanallari shakllandi. 2024-yilda “Markaziy Osiyo–2040” konsepsiyasi va 2025–2027-yillarga yo‘l xaritasi qabul qilindi. 2025-yil Toshkent uchrashuvi Ozarbayjonni to‘liq ishtirokchi sifatida qabul qilib, formatni transkaspiy bog‘liqlik tomon kengaytirdi hamda xavfsizlik va barqarorlik konsepsiyasi bilan 2026–2028-yillarga risklar katalogini tasdiqladi[7]. Maslahatlashuv uchrashuvlari va TDT o‘rtasida funksional mehnat taqsimoti mavjudligini ko‘rsatdi. Birinchi platforma barcha besh Markaziy Osiyo davlatini qamrab olib, mintaqaviy masalalarga siyosiy egalik va legitimlik beradi. Ikkinchi platforma esa umumiy turkiy identitet va kengroq transkaspiy makon asosida savdo, bojxona, transport, investitsiya, ta’lim va madaniyat bo‘yicha ixtisoslashgan vositalarni safarbar qiladi. O‘zbekiston uchun bu ikki mexanizm bir-birini o‘rnini to‘ldiruvchi emas, alohidalik xususiyatlari mavjud. Maslahatlashuv formati Tojikistonni ham qamrab oladigan geografik yaxlitlikni ta’minlab berib, mamlakat tashqi siyosiy konsepsiyasining asosiy yo‘nalishini ta’minlydi. TDT esa Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Turkmaniston bilan sektoral tarmoqlashuvni ta’minlab, transmintaqaviylikning aniq konyukturasini ifodalaydi. TDTning 2022-yil Samarqand sammiti esa transport, savdoni soddalashtirish va investitsiya institutlarini siyosiy kun tartibiga olib chiqib, unda qabul qilingan “Turkiy dunyo nigohi–2040” hujjati uzoq muddatli koordinatsiya yo‘nalishlarini belgilab berdi. Shu ma’noda TDT rejalashtirish vazifasini bajarishi mumkin, texnik jihatdan tayyor bo‘lgan yechimlar kichikroq manfaatdor guruhda sinovdan o‘tkazilib, keyinchalik butun Markaziy Osiyo formatiga moslashtiriladi. Aksincha, suv havzalari, chegaralar yoki mintaqaviy xavfsizlik singari barcha besh davlat ishtirokini talab qiladigan masalalar Maslahatlashuv uchrashuvlarida legitimlashtirilishi lozim. Savdo va investitsiya sohasida siyosiy to‘siqlarning yumshashi, chegaralarning ochilishi va biznes forumlari tranzaksion xarajatlarni kamaytirish uchun sharoit yaratdi. 2025-yilgi Toshkent uchrashuvida keltirilgan rasmiy bahoga ko‘ra, 2024-yilda mintaqa ichki savdosi 10,7 milliard AQSh dollariga yetgan, o‘zaro investitsiyalar esa 17 foiz oshgan[8].

Ma’lumki, xalqaro dengiz transport yo‘liga chiqishda O‘zbekistonning ikki karra quruqlik bilan o‘ralgan geografiyasi ko‘p yo‘nalishli bog‘liqlikni milliy manfaatga aylantiradi. Qozog‘iston va Turkmaniston orqali Kaspiyga chiqish, Qirg‘iziston orqali Xitoy yo‘nalishlari va Afg‘oniston tomon janubiy marshrutlar bir-birini to‘ldiruvchi alternativ sifatida ko‘rilishi kerak. 2025-yilda Ozarbayjonning Maslahatlashuv formatiga to‘liq qo‘shilishi Transkaspiy transportining siyosiy muvofiqlashuvini kuchaytirishi mumkin. Biroq yo‘lakning mavjudligi uning raqobatbardoshligini anglatmay, chegara kutish vaqti, tariflarning prognoz qilinishi, vagon va konteyner almashinuvi, sug‘urta va raqamli hujjatlarning tan olinishi hal qiluvchi ko‘rsatkichlar bilan xulosa chiqariladi.

Muhokama. Markaziy Osiyo hamkorligini “integratsiya bor yoki yo‘q” degan ikkilik mezon bilan baholash yetarli emasligini ko‘rsatadi. 1990-yillardagi tajriba

formal institutning o‘zi bajarilishni kafolatlamasligini ko‘rsatgan bo‘lsa, 2017-yildan keyingi tajriba moslashuvchan format muntazam siyosiy muloqot va sektoral mexanizmlar bilan bog‘langanda real institutsional mahsulot yaratishi mumkinligini ko‘rsatmoqda. Bu aniqlanish mashxur olim Allisonning “virtual regionalizm” tanqidini qisman tasdiqlaydi, ammo hozirgi davrda mintaqaviylashuv faqat ramziy emasligini ham namoyish etadi, milliy koordinatorlar, transport bitimlari, o‘rta muddatli yo‘l xaritalari va xavfsizlik hujjatlari ijro arxitekturasining elementlaridir.

Modelning afzalligi shundaki, u a’zolarning turli tashqi siyosiy aloqalarini nol yig‘indili raqobatga aylantirmaydi. Qozog‘iston va Qirg‘izistonning YEOII a’zoligi, Turkmanistonning betaraflik siyosati va O‘zbekistonning ko‘p vektorli yo‘nalishi yagona millatlararo modelga mos kelmaydi, biroq transport, bojxona ma’lumoti, favqulodda vaziyat yoki ta’lim mobilligi kabi modullarda hamkorlikka to‘sqinlik qilishi shart emas. Shu bilan birga, TDTning turkiy birdamlikka asoslanishi Tojikistonni chetda qoldiruvchi platformaga aylanmasligi zarur. Suv va xavfsizlik kabi geografik jihatdan bo‘linmas masalalarda Markaziy Osiyo formatining ustuvorligi saqlanishi modelning siyosiy barqarorlik shartidir.

Qayd etish joizki, 2017-yildan keyingi natijalar institutlar emas, faqat rahbarlar o‘rtasidagi qulay siyosiy konyunktura mahsuli bo‘lishi mumkin.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillardan xulosa qilish mumkinki, O‘zbekistonning 2017–2026-yillardagi ko‘p tomonlama hamkorligi yagona millatlararo integratsion loyiha emas, balki siyosiy maslahatlashuv va funksional loyihalarni o‘zaro bog‘lovchi ikki platformali model sifatida shakllanib ulgurdi.

Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining maslahatlashuv uchrashuvlari suverenitet, tenglik va konsensus asosida mintaqaviy kun tartibini legitimlashtiradi, TDT esa savdo, transport, investitsiya va gumanitar aloqalar uchun texnik hamda moliyaviy vositalar orqali mustahkamlaydi.

Shunday qilib, ilmiy va siyosiy baholashning markaziy mezoni deklaratsiyalar soni emas, hamkorlikning kundalik davlat boshqaruviga singishi va fuqarolar hamda biznes uchun o‘lchanadigan transchegaraviy foyda yaratishidir. Ikki platformali funksional regionalizm ana shu o‘tishni tushuntiruvchi va kelgusida empirik sinovdan o‘tkazilishi mumkin bo‘lgan analitik modelni taqdim etadi.

ADABIYOTLAR

1. Bohr, A. Regionalism in Central Asia: New geopolitics, old regional order. International Affairs, 80(3), (2004). – P. 485–502. https://doi.org/10.1111/j.1468-2346.2004.00394.x.
2. Mirziyoyev, Sh. M. Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo‘lidagi hamkorlik. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2017-yil noyabr. https://president.uz/oz/lists/view/1227
3. Mirziyoyev, Sh. M. BMT sammitidagi nutqi. https://president.uz/oz/lists/view/8656
4. Costa Buranelli, F. The Consultative Meetings of Heads of State of Central Asia: Local norms, institutions and the fundamentals of regional order. International Affairs, 102(1), (2026). – P. 121–145. https://doi.org/10.1093/ia/iiaf225
5. Organization of Turkic States. (2019). Timeline: Seventh Summit and Uzbekistan’s accession. https://turkicstates.org/timeline-en
6. Bohr, A. Regionalism in Central Asia: New geopolitics, old regional order. International Affairs, 80(3), (2004). – P. 485–502. https://doi.org/10.1111/j.1468-2346.2004.00394.x
7. Costa Buranelli, F. The Consultative Meetings of Heads of State of Central Asia: Local norms, institutions and the fundamentals of regional order. International Affairs, 102(1), (2026). –P. 121–145. https://doi.org/10.1093/ia/iiaf225
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 16-noyabrdagi Markaziy Osiyo davlat rahbarlari maslahat uchrashuvidagi nutqidan. https://president.uz/en/lists/view/8674